

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурад Мансур Бобомурадovich
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухраhon Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Холбеков Абугани ЛИТЕРАТУРНЫЙ МЕТОД КАК СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ В АНАЛИЗЕ ТОТАЛИТАРИЗМА (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА «1984»).....	8
2. Султанова Эътибор МЕХАНИЗМЫ ПОЛИТИКИ ТОЛЕРАНТНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	15
3. Латипова Нодира МЕСТО И РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЭТИКИ В СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЕ.....	21
4. G'afforova Mavlyuda JAMIYAT HAYOTIDA XOTIN-QIZLARNING SOTSIOMADANIY QIYOFASI.....	29
5. Tagiyeva Gulsum, Tursunboyev Jahongir O'ZBEKISTONDA ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLARNI TAYYORLASH TIZIMINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	38
6. Xolbekov Abdugani, Axmedov Tuychi IJTIMOIY XAVFLAR SHAROITIDA MAHALLANING ROLI VA ANAMIYATI.....	51
7. Якубов Ильдар КОНЦЕПЦИИ УПРАВЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ РОЛИ ГОСУДАРСТВА: ПОЛИТИКО-СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД.....	57
8. Хасанова Мавлюда, Низамов Шохрухжон РОЛЬ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ФИЛИАЛАХ РОССИЙСКИХ ВУЗОВ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	63
9. Mannanova Nilufar BUYUK BRITANIYA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA KOMPETENSIYA MODELLARINING RIVOJLANISH AMALIYOTI.....	71
10. Berdimuratova Alima, Baymurzaev Azamat, Berdimuratov Nauriz JAMIYATDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ROLI.....	78
11. Radjabova Aziza XALQARO MUNOSABATLAR VA JAHON SIYOSATIDA GENDER FENOMENI: FEMINISTIK NAZARIYANING KONSEPTUAL YONDASHUVLARI.....	87
12. Ixtiyarov Farxod RAQAMLI TENGSIZLIKNI INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA BARTARAF ETISH IMKONIYATLARI.....	93
13. Ergasheva Mehribon “GENDER MADANIYATI” TUSHUNCHASI: MOHIYATI VA ASOSIY JIHLATLARI.....	100
14. Mengliyev Atabek REPRODUKTIV SALOMATLIKNI BELGILOVCHI IJTIMOYIY DETEMINANTLAR: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	107

15. Джураева Анна, Сеитов Азамат СОЦИАЛЬНАЯ ЦЕНА УСТОЙЧИВОСТИ: УРОКИ КРИЗИСА 2008 ГОДА И РИСКИ “ГОЛЛАНДСКОЙ БОЛЕЗНИ” ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА.....	118
16. Mo‘minov Zokirjon TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARINI YUQUMLI FUNKSIYALARI: IJTIMOIIY- STRAUKTURAVIY TAHLIL.....	125
17. Husenov Sirojiddin “HAR BIR OILA TADBIRKOR” HARAКATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	132
18. Kalanova Sabohat, Saidov Ulug‘bek RAQAMLI JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARINING DIFFERENSIATSIYASI.....	140
19. Toshbo‘riyeva Sevara TA‘LIM VA OILAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING YOSH AYOLLAR IJTIMOIIY MOBILLIGIGA TA‘SIRI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	150
20. Mannanov Erkin ETNOTURIZMNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARIGA BIR NAZAR.....	157
21. Артыкова Алёна ОРИЕНТАЦИЯ НА ЧЕЛОВЕКА: НОВЫЙ ВЕКТОР РАЗВИТИЯ МАХАЛЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	164
22. Zaitova Sitara O‘ZBEKISTONDA KAM TA‘MINLANGAN OILALARNI MANZILLI QO‘LLAB- QUVVATLASH MEХANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	177
23. Raximjonova Gulzira DAVLAT BOSHQARUVI SHAFFOFLIGINI TA‘MINLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINING O‘RNI: STATISTIK VA METODOLOGIK TAHLIL.....	186
24. Ro‘yiddinova Aisha O‘ZBEKISTONDA ISHONCHLI AXBOROT MUHITINING HOLATI VA UNING XALQARO KO‘RSATKICHLARDAGI O‘RNI.....	196
25. Xaydarova Javohira RAHBAR AYOLLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MEХANIZMLARI.....	203

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


Ixtiyarov Farxod,

O'zMU mustaqil tadqiqotchisi, sotsiologiya fanlari

bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

e-mail: farxod.ixtiyarov.77@gmail.com

RAQAMLI TENGSIZLIKNI INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA BARTARAF ETISH IMKONIYATLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21111699>

ANNOTATSIYA

Maqolada zamonaviy jamiyatda raqamli tengsizlikni inklyuziv yondashuv asosida bartaraf etishning ijtimoiy imkoniyatlari va mexanizmlari tahlil qilingan. Muallif raqamli texnologiyalardan foydalanishda aholining turli qatlamlari, xususan, imkoniyati cheklangan va kam ta'minlangan guruhlar o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirish masalalarini tadqiq etadi. Sotsiologik nuqtai nazardan, inklyuziv raqamlashtirish jarayoni ijtimoiy integratsiya va barqaror rivojlanishning muhim omili sifatida asoslab berilgan. Tadqiqotda davlat dasturlari, ta'lim tizimi va ijtimoiy institutlarning raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishdagi roli ochib berilgan. Maqola yakunida ijtimoiy stratifikatsiya salbiy oqibatlarini yumshatish va raqamli makon erkinligini ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar, sotsiologik xulosalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: raqamli tengsizlik, inklyuziv yondashuv, ijtimoiy integratsiya, raqamlashtirish, ijtimoiy tengsizlik, axborot jamiyati, sotsiologik tahlil, raqamli ko'nikmalar, ijtimoiy institut, stratifikatsiya, imkoniyatlar, barqaror rivojlanish.

Ихтияров Фарход,

Соискатель НУУз,

доктор философии (PhD) по социологии

e-mail: farxod.ixtiyarov.77@gmail.com

ВОЗМОЖНОСТИ ПРЕОДОЛЕНИЯ ЦИФРОВОГО НЕРАВЕНСТВА НА ОСНОВЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ПОДХОДА

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются социальные возможности и механизмы преодоления цифрового неравенства в современном обществе на основе инклюзивного подхода. Автор исследует вопросы сокращения разрыва в использовании цифровых технологий между различными слоями населения, особенно среди уязвимых и малообеспеченных групп. С социологической точки зрения инклюзивная цифровизация обоснована как важнейший фактор социальной интеграции и устойчивого развития. В исследовании раскрыта роль государственных программ, системы образования и социальных институтов в развитии цифровых навыков. В заключении статьи выдвинуты практические рекомендации и

социологические выводы по смягчению негативных последствий социальной стратификации и обеспечению доступности единого цифрового пространства для всех граждан.

Ключевые слова: Цифровое неравенство, инклюзивный подход, социальная интеграция, цифровизация, социальное неравенство, информационное общество, социологический анализ, цифровые навыки, социальный институт, стратификация, возможности, устойчивое развитие.

Ikhtiyarov Farhod,

Independent Researcher of the National University
of Uzbekistan (NUUZ),
doctor of Philosophy (PhD) in Sociology
e-mail: farxod.ixtiyarov.77@gmail.com

POSSIBILITIES OF ELIMINATING THE DIGITAL INEQUALITY THROUGH AN INCLUSIVE APPROACH

ABSTRACT

The article analyzes social opportunities and mechanisms for overcoming the digital divide in modern society based on an inclusive approach. The author examines issues of reducing inequality in digital technology utilization among various population segments, particularly vulnerable and low-income groups. From a sociological perspective, inclusive digitalization is substantiated as a crucial factor for social integration and sustainable development. The study reveals the role of state programs, the education system, and social institutions in developing digital literacy. Conclusively, the paper presents practical recommendations and sociological insights aimed at mitigating the negative effects of social stratification and ensuring equal access to the digital environment.

Keywords: Digital divide, inclusive approach, social integration, digitalization, social inequality, information society, sociological analysis, digital skills, social institution, stratification, opportunities, sustainable development.

KIRISH

Raqamli tengsizlik muammosi global miqyosda jamiyatning barcha qatlamlariga ta'sir ko'rsatuvchi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida shakllangan bo'lib, uni bartaraf etish raqamli transformatsiya jarayonlarining samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda axborot-kommunikatsiya infratuzilmasiga kirish imkoniyati, raqamli savodxonlik darajasi, iqtisodiy imkoniyatlar va hududiy farqlar aholi o'rtasida sezilarli tafovutlarni keltirib chiqarmoqda. Bu holat raqamli iqtisodiyotga integratsiyalashuv jarayonlarini cheklab, ayrim ijtimoiy guruhlarning imkoniyatlarini kamaytirishga olib keladi.

Prezidentimiz "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz shart va zarur. Bu bizga rivojlanishning eng qisqa yo'ldan borish imkonini beradi. Chunki, intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik, nodir iste'dod egalarini tarbiyalab kamolga yetkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q" [1, – B.23].

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda raqamli tengsizlikni inklyuziv yondashuv asosida bartaraf etish imkoniyatlarini aniqlash va baholash maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini raqamli jamiyat nazariyasi, ijtimoiy inklyuziya konsepsiyasi, inson kapitali nazariyasi hamda axborot jamiyati nazariyasi tashkil etadi.

Tadqiqotda tizimli, institutsional, funksional va komparativ tahlil yondashuvlari qo'llanildi. Tizimli yondashuv raqamli tengsizlikni ijtimoiy, iqtisodiy, hududiy va demografik omillar bilan o'zaro bog'liq holda o'rganish imkonini berdi. Institutsional yondashuv davlat, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektorning raqamli inklyuziyani ta'minlashdagi rolini baholashga xizmat qildi. Funksional yondashuv raqamli texnologiyalarning aholi turmush sifati,

ta'lim, mehnat bozori va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlariga ta'sirini tahlil qilishda qo'llanildi.

ASOSIY QISM

Inklyuziv yondashuv raqamli tengsizlikni bartaraf etishda asosiy konseptual asos sifatida qaraladi. Inklyuzivlik faqat texnik imkoniyatlarni kengaytirish bilan cheklanmay, balki aholining barcha qatlamlari uchun raqamli imkoniyatlardan teng foydalanish sharoitlarini yaratishni nazarda tutadi. Bu jarayonda davlat siyosatining muvofiqligi, xususi sektor ishtirokining kengayishi va fuqarolik jamiyati institutlarining faolligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli tengsizlikni kamaytirishda infratuzilmani rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Qishloq hududlarida internet tarmog'i qamrovini kengaytirish, arzon va sifatli aloqa xizmatlarini ta'minlash aholining raqamli xizmatlarga kirish imkoniyatlarini oshiradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo miqyosida shahar va qishloq hududlari o'rtasida internetdan foydalanish darajasida katta farq saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu tafovut yanada sezilarlidir. O'zbekiston sharoitida ham so'nggi yillarda internet infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ayrim chekka hududlarda raqamli xizmatlarga kirish imkoniyatlari hali ham cheklangan.

Quyidagi uchta o'lcham o'zaro bog'liq bo'lib, ulardan biridagi kamchilik boshqalariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi (1-chizma).

Raqamli tengsizlikni tahlil qilishda uning bir nechta o'lchamlari mavjudligiga e'tibor qaratish zarur

Birinchi o'lcham – texnik infratuzilmaga kirish imkoniyati bo'lib, internet tarmog'iga ulanish, yuqori tezlikdagi aloqa xizmatlaridan foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

Ikkinchi o'lcham – raqamli ko'nikmalr darajasi, ya'ni fuqarolarning axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish qobiliyati.

Uchinchi o'lcham esa raqamli xizmatlardan foydalanishdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy to'siqlar bilan bog'liqdir.

1-chizma. Raqamli tengsizlikni tahlil qilishdagi nechta o'lchamlari

“Raqamli tengsizlik faqat texnologiyaga kirish emas, balki uni ijtimoiy va iqtisodiy hayotda samarali qo'llash qobiliyati bilan ham bog'liq” [2, – B.248-250]. Kastellsning ushbu qarashiga ko'ra, raqamli tengsizlikni faqat internet yoki qurilmalarga ega bo'lish bilan cheklash noto'g'ri. Asosiy muammo insonlarning raqamli texnologiyalardan qanday foydalana olishidadir. Ya'ni, bilim, ko'nikma va amaliy tajriba yetishmasligi raqamli ajralishni chuqurlashtiradi. Shu sababli inklyuziv yondashuv ta'lim, raqamli savodxonlik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga olishi kerak.

Raqamli tengsizlikni bartaraf etishda ta'lim tizimining o'rni alohida ahamiyatga ega. Raqamli savodxonlikni oshirish, axborot texnologiyalari bo'yicha bilimlarni kengaytirish aholining raqamli iqtisodiyotda faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Bu borada maktab ta'limi, kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash dasturlarini raqamli kompetensiyalar asosida qayta ko'rib chiqish talab etiladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli ko'nikmalarni erta yoshdan shakllantirish kelgusida inson kapitalining raqobatbardoshligini oshiradi. Ijtimoiy himoya mexanizmlari ham raqamli tengsizlikni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Kam ta'minlangan aholi qatlamlari uchun raqamli qurilmalarni

xarid qilishda subsidiyalar berish, internet xizmatlari uchun imtiyozli tariflarni joriy etish orqali ularning raqamli muhitga integratsiyalashuvini ta'minlash mumkin. Bunday chora-tadbirlar fuqarolar o'rtasidagi iqtisodiy farqlarni kamaytirish bilan birga, raqamli xizmatlardan foydalanish darajasini ham oshiradi.

Raqamli hukumat tizimining rivojlanishi ham raqamli tengsizlikni bartaraf etishga xizmat qiladi. Davlat xizmatlarini onlayn shaklga o'tkazish, ulardan foydalanishni soddalashtirish va ommalashtirish orqali fuqarolarning davlat bilan o'zaro munosabatlari samaradorligi oshadi. Biroq, bu jarayonda raqamli xizmatlardan foydalana olmaydigan aholi qatlamlari uchun alternativ mexanizmlarni saqlab qolish muhimdir. Davlat xizmatlari markazlari orqali oflayn xizmat ko'rsatishni davom ettirish inklyuziv yondashuvning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu bilan birga, gender tengsizlik masalasi ham raqamli tengsizlik doirasida ko'rib chiqilishi zarur. Ayrim jamiyatlarda ayollar va erkaklar o'rtasida axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarida farqlar mavjud. Bu esa iqtisodiy faollik va ijtimoiy ishtirok darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Genderga yo'naltirilgan dasturlar orqali ayollarning raqamli savodxonligini oshirish va ularni IT sohasiga jalb etish raqamli tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Raqamli tengsizlikni bartaraf etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ham keng. Mobil texnologiyalar orqali masofaviy ta'lim, telemeditsina va elektron tijorat xizmatlarini rivojlantirish chekka hududlarda yashovchi aholi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu esa hududiy tengsizlikni kamaytirishga yordam beradi.

“Raqamli jamiyatga integratsiya qilish imkoniyati raqamli infratuzilma va ta'limga bog'liq” [3, – B.61-63]. Bu fikr raqamli jamiyatga kirishda ikki asosiy omilni ko'rsatadi: texnologiya va ta'lim. Faqat internet mavjudligi yetarli emas, insonlar uni tushunishi va qo'llay olishi kerak. Shu sababli raqamli infratuzilma bilan birga inson kapitaliga investitsiya qilish muhim.

Raqamli tengsizlikni inklyuziv yondashuv asosida bartaraf etishda institutsional mexanizmlarni takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Davlat boshqaruvi tizimida raqamli transformatsiya jarayonlarini muvofiqlashtiruvchi yagona strategik yondashuvning mavjudligi barcha sohalarda teng imkoniyatlarni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu jarayonda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, raqamli xizmatlarni standartlashtirish va ularning sifatini nazorat qilish orqali aholining barcha qatlamlari uchun qulay muhit yaratiladi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev “Sudlar faoliyati ochiqligi va oshkoraligining kuchaytirilishi, “Elektron va raqamli sud” konsepsiyasining amalga oshirilishi, sudlar tomonidan o'z faoliyati haqidagi hisobotni Xalq deputatlari kengashlariga taqdim etilishi, mahalla, korxonalar va tashkilotlarda sayyor sud yig'ilishlari o'tkazilishi – adolatli sudning garovi bo'lishiga erishishimiz lozim”, deb ta'kidlagan edilar [4, – B.107].

Raqamli hukumat tizimlarida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash fuqarolarning ishonchini oshiradi va ularning faol ishtirokini rag'batlantiradi. Raqamli tengsizlikning yana bir muhim jihati axborotdan foydalanish madaniyati bilan bog'liq. Aholining ayrim qatlamlari raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsa-da, ulardan samarali foydalanish ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan bo'lishi mumkin. Bu holat raqamli resurslardan to'liq foydalanmaslikka olib keladi. Shu nuqtai nazardan, ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari va nodavlat tashkilotlar orqali raqamli madaniyatni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Raqamli xavfsizlik, axborotni tanqidiy tahlil qilish va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantirish ham ushbu jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi.

“Raqamli tengsizlik mavjud ijtimoiy tengsizliklarni qayta tiklaydi va ba'zan yanada kuchaytiradi” [5, – B.108-121]. Hilbert raqamli tengsizlikni jamiyatdagi mavjud iqtisodiy va ijtimoiy farqlarni kuchaytiruvchi omil sifatida ko'radi. Agar inson raqamli texnologiyalarga ega bo'lmasa, u ta'lim, ish va xizmatlardan orqada qoladi. Bu esa ijtimoiy stratifikatsiyani yanada chuqurlashtiradi. Shuning uchun raqamli siyosat adolatli imkoniyatlar yaratishga qaratilgan bo'lishi zarur.

Iqtisodiy imkoniyatlar bilan bog'liq omillar ham raqamli tengsizlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kam daromadli aholi qatlamlari uchun zamonaviy raqamli qurilmalarni xarid qilish va internet xizmatlaridan doimiy foydalanish qiyinchilik tug'diradi. Bu esa ularning raqamli iqtisodiyotda ishtirok etish imkoniyatlarini cheklaydi. Bunday sharoitda davlat tomonidan moliyaviy

qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish, xususiyl sektor bilan hamkorlikda arzon texnologiyalarni ishlab chiqish va tarqatish orqali mazkur muammoni hal etish mumkin. Ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar doirasida maktab o'quvchilari va talabalarni noutbuk yoki planshetlar bilan ta'minlash amaliyoti samarali natijalar berishi mumkin.

Raqamli tengsizlikni kamaytirishda hududiy rivojlanish siyosati ham muhim o'rin tutadi. Ayrim hududlarda iqtisodiy faollikning pastligi va infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonlarini sekinlashtiradi. Shu bois, hududlarni kompleks rivojlantirish dasturlari doirasida raqamli infratuzilmani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Bu orqali hududlar o'rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish mumkin.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozoridagi o'zgarishlar ham raqamli tengsizlikka ta'sir ko'rsatadi. Avtomatlashtirish va raqamlashtirish jarayonlari ayrim kasblarning yo'qolishiga, yangi kasblarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Bu esa aholining muayyan qismi uchun ishsizlik xavfini oshiradi. Shu bilan birga, raqamli ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Bunday sharoitda qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish orqali aholini yangi iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli tengsizlikni bartaraf etishda xalqaro hamkorlikning o'rni ham katta. Ilg'or tajribalarni o'rganish, texnologiyalar transferi va investitsiyalarni jalb qilish orqali milliy raqamli infratuzilmani rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi. Xalqaro tashkilotlar va donorlar tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan muhim tashabbuslardan biri hisoblanadi.

Raqamli tengsizlikni inklyuziv yondashuv asosida hal etishda innovatsion ekotizimlarni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Startaplar, texnoparklar va innovatsion markazlar orqali yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish raqamli imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qiladi. Bu esa iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish bilan birga, yangi ish o'rinlarini yaratish orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, raqamli tengsizlikni bartaraf etishda axborot xavfsizligi masalalariga ham alohida e'tibor qaratish zarur.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi ortishi bilan birga, kiberxavflar ham ko'paymoqda. Aholining raqamli muhitga bo'lgan ishonchini ta'minlash uchun ma'lumotlarni himoya qilish, kiberxavfsizlikni ta'minlash va fuqarolarni bu borada xabardor qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Raqamli tengsizlikni bartaraf etish jarayonida davlat, biznes va jamiyat o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish talab etiladi. Davlat siyosatini amalga oshirishda xususiyl sektorning ishtirokini ta'minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va fuqarolarning faolligini oshirish orqali inklyuziv raqamli jamiyatni shakllantirish mumkin. Bu esa raqamli transformatsiyaning barqaror va samarali amalga oshirilishiga zamin yaratadi.

Raqamli tengsizlikni kamaytirishda inson kapitali sifatini oshirish masalasi strategik ahamiyat kasb etadi. Inson kapitali nafaqat bilim va ko'nikmalar majmuasi, balki innovatsiyalarni qabul qilish va ulardan samarali foydalanish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bilimlar tez yangilanib borayotgani sababli uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish zarur. Bu esa aholining turli yosh qatlamlari uchun ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishni talab qiladi. Masofaviy ta'lim platformalari, onlayn kurslar va raqamli ta'lim resurslari orqali bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish raqamli tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Aholining yosh tarkibi ham raqamli tengsizlik darajasiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Yoshlar odatda raqamli texnologiyalarga tez moslashadi va ulardan faol foydalanadi, katta yoshdagilar esa ko'p hollarda raqamli muhitga moslashishda qiyinchiliklarga duch keladi. Bu esa "yoshlar va keksalar o'rtasidagi raqamli tafovut" deb ataluvchi holatni keltirib chiqaradi. Ushbu muammoni hal etish uchun katta yoshdagi aholi uchun maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish, ularga qulay interfeyslarga ega xizmatlarni yaratish va maslahat markazlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Raqamli tengsizlikning ijtimoiy-psixologik jihatlari ham alohida tahlilni talab qiladi. Ayrim fuqarolarda raqamli texnologiyalarga nisbatan ishonchsizlik, qo'rquv yoki qiziqishning pastligi kuzatiladi. Bu holat ularning raqamli xizmatlardan foydalanishdan chetda qolishiga sabab bo'ladi [6].

Shu nuqtai nazardan, aholi o'rtasida raqamli texnologiyalarning afzalliklari haqida tushuntirish ishlarini olib borish, muvaffaqiyatli tajribalarni keng targ'ib qilish orqali ijobiy munosabatni shakllantirish mumkin. Raqamli tengsizlikni bartaraf etishda davlat xizmatlarining integratsiyalashuv darajasi ham muhim ahamiyatga ega.

Turli idoralar tomonidan ko'rsatiladigan elektron xizmatlarni yagona platformada birlashtirish fuqarolar uchun qulaylik yaratadi va xizmatlardan foydalanish darajasini oshiradi. Bunday yondashuv orqali ortiqcha byurokratik to'siqlar bartaraf etiladi, vaqt va resurslar tejaladi. Shu bilan birga, raqamli xizmatlarning mobil ilovalar orqali taqdim etilishi aholining keng qatlamlari uchun ulardan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli tengsizlik iqtisodiy o'sishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan jamiyatlarda mehnat unumdorligi yuqori bo'ladi, innovatsiyalarni joriy etish tezlashadi va yangi bozorlar shakllanadi. Aksincha, raqamli tengsizlik yuqori bo'lgan jamiyatlarda iqtisodiy rivojlanish sur'atlari past bo'ladi. Shu sababli raqamli tengsizlikni kamaytirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi zarur [7].

Raqamli tengsizlikni inklyuziv yondashuv asosida hal etishda ma'lumotlardan foydalanish samaradorligini oshirish ham muhim ahamiyatga ega. "Katta ma'lumotlar" texnologiyalari orqali aholining ehtiyojlarini aniqlash, xizmatlarni individuallashtirish va qaror qabul qilish jarayonlarini takomillashtirish mumkin. Bu esa davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish bilan birga, aholining turli qatlamlari uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashga xizmat qiladi.

Raqamli tengsizlikni kamaytirishda infratuzilmaviy innovatsiyalar, jumladan, 5G tarmoqlari, sun'iy intellekt va "Internet ashyolari" kabi texnologiyalarni joriy etish katta imkoniyatlar yaratadi. Ushbu texnologiyalar iqtisodiyotning turli sohalarida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Biroq, ularni joriy etish jarayonida barcha aholi qatlamlarining manfaatlarini hisobga olish muhimdir, aks holda yangi texnologiyalar mavjud tengsizlikni yanada chuqurlashtirishi mumkin.

Raqamli tengsizlikni bartaraf etishda monitoring va baholash tizimini joriy etish ham zarur. Raqamli transformatsiya jarayonlarining samaradorligini baholash, aholi o'rtasidagi raqamli tafovut darajasini aniqlash va tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun muntazam tahlillar olib borilishi lozim. Bu esa siyosiy qarorlarning asoslanganligini ta'minlaydi va resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi [8]. Raqamli tengsizlikni inklyuziv yondashuv orqali bartaraf etish jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Bu jarayonda har bir fuqaroning raqamli imkoniyatlardan foydalanish huquqi ta'minlanishi, ularning iqtisodiy va ijtimoiy hayotda to'liq ishtirok etishi uchun sharoit yaratilishi lozim. Raqamli transformatsiya faqat texnologiyalarni joriy etish emas, balki inson manfaatlariga xizmat qiluvchi tizimni shakllantirishni ham anglatadi.

Raqamli tengsizlikni bartaraf etish jarayonida davlat siyosatining samaradorligi ko'p jihatdan uning kompleks va tizimli xarakterga ega bo'lishi bilan bog'liq. Alohida sohalar kesimida amalga oshirilayotgan islohotlar o'zaro uyg'unlashmagan taqdirda kutilgan natijalarga erishish qiyinlashadi [9]. Shu sababli raqamli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda tarmoqlararo integratsiyani ta'minlash, iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlarini o'zaro bog'liq holda rivojlantirish talab etiladi. Bu esa raqamli imkoniyatlarning barcha qatlamlar uchun bir xil darajada taqsimlanishiga xizmat qiladi. Raqamli tengsizlikning oldini olishda erta bosqichdagi aralashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz rahbari "Iste'molchilarga televizion signalni uzatish, yer usti televizion eshittirish, kabel televideniyesi, IP-televidenie, ma'lumotlar uzatish tarmoqlari, mobil aloqa, Internet texnologiyalaridan foydalangan holda teleradioeshittirish, televizion va radio xizmatlarining barcha turlarini to'liq qamrab olgan holda raqamli eshittirishni takomillashtirishimiz lozim" [10, – B.188], deb ta'kidlagan edilar.

Bolalar va o'smirlar o'rtasida raqamli ko'nikmalarni shakllantirish orqali kelajakdagi ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish mumkin. Maktab ta'limida axborot texnologiyalari fanlarini chuqurlashtirish, amaliy mashg'ulotlarga e'tibor qaratish va ijodiy yondashuvni rag'batlantirish orqali o'quvchilarning raqamli salohiyatini oshirishga erishiladi. Bu esa kelgusida ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

XULOSA

Raqamli tengsizlikni kamaytirishda jamoat infratuzilmalarining roli ham muhimdir. Kutubxonalar, axborot markazlari va jamoat Wi-Fi nuqtalari orqali internetdan foydalanish imkoniyatini kengaytirish aholining turli qatlamlari uchun qulay sharoit yaratadi. Ayniqsa, shaxsiy qurilmalarga ega bo'lmagan fuqarolar uchun bunday infratuzilmalar muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv raqamli xizmatlarga kirish imkoniyatini demokratiklashtirishga xizmat qiladi.

Raqamli tengsizlikning bartaraf etilishida tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Kichik biznes va startaplar uchun raqamli platformalar orqali bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish iqtisodiy faollikni oshiradi. Elektron tijorat, raqamli marketing va onlayn xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholining daromad manbalarini diversifikatsiya qilish mumkin. Bu esa ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga ham xizmat qiladi.

Raqamli tengsizlikni kamaytirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur. Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy o'quv dasturlarini joriy etish, amaliy ko'nikmalarga yo'naltirilgan ta'limni kuchaytirish va sanoat bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash mumkin. Bu esa raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Raqamli tengsizlikka ta'sir etuvchi omillardan yana biri – til va madaniy to'siqlar hisoblanadi. Ayrim raqamli resurslar va xizmatlar faqat muayyan tillarda taqdim etilgani sababli aholining bir qismi ulardan foydalana olmaydi. Shu sababli mahalliy tillarda kontent yaratish, interfeyslarni lokalizatsiya qilish va madaniy xususiyatlarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Bu esa raqamli xizmatlarning ommalashuvini ta'minlaydi.

Raqamli hukumatni rivojlantirish davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. U davlat xizmatlarini tezkor, shaffof va aholi uchun qulay shaklda taqdim etish imkonini beradi. Natijada byurokratik to'siqlar qisqaradi va boshqaruv samaradorligi oshadi. Shu jihatdan raqamli hukumat tizimi optimallashtirishning asosiy instrumentiga aylanmoqda.

Raqamli transformatsiya jarayonlarining samaradorligi ko'p jihatdan ijtimoiy omillarga bog'liq. Aholining raqamli savodxonligi, axborot texnologiyalariga bo'lgan ishonchi va ulardan foydalanish madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, jamiyatda innovatsiyalarga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishi zarur. Bu omillar raqamli islohotlarning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Adabiyotlar/Литература/ References:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегияси. – Тошкент, 2023. – Б. 23.
2. Castells M. The Internet Galaxy. – Oxford: Oxford University Press, 2001. – Б. 248-250.
3. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 1996. – Б. 61–63.
4. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегияси. – Тошкент, 2023. – Б.107.
5. Hilbert M. Digital Technology and Social Inequality. – World Development, 2011. – Б. 108-121.
6. Manuel Castells. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 1996.
7. Erik Brynjolfsson, Andrew McAfee. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. – New York City: W. W. Norton & Company, 2014.
8. Klaus Schwab. The Fourth Industrial Revolution. – Geneva: World Economic Forum, 2016.
9. George Westerman, Didier Bonnet, Andrew McAfee. Leading Digital: Turning Technology into Business Transformation. – Boston: Harvard Business Review Press, 2014.
10. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегияси. – Тошкент, 2023. – Б.188.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000